

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**R.A.Mamajonov**

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xuquqiy va axloqiy-me'yoriy munosabatlar, o'zaro muloqot madaniyati ..... 547

**B.A.Pulatov**

Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lif-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari ..... 550

**K.I.Marayimova**

Bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari ..... 554

**N.M.O'rinova, G.I.Tillabayeva**

Talabalarning mustaqil ta'lif olish kompetentiligini rivojlantirish usullari ..... 559

**D.I.Asqarova**

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish omillari ..... 563

**M.Q.Jabborova, Sh.D.Raxmatjonov**

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni psixologik, intellektual va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ilk davrning o'ziga xos xususiyatlari ..... 571

**M.Q.Jabborova**

Maktabgacha ta'lif yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamонавиғи sifatiga erishish omillari ..... 574

**FALSAFA****A.A.A.Qambarov**

"Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasini amalga oshirishda diniy qadriyatlar omilining innovatsion xususiyatlari ..... 581

**I.M.Arzimatova**

Boshqaruv kadrlari faoliyatida ma'naviyatning o'mi ..... 585

**D.E.Normatova**

Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati ..... 590

**I.A.Asatulloev**

Karl Yung qalb konsepsiyasida sharq va g'arb xalqlari m'a'naviy hayotining qiyosiy tahlili ..... 595

**T.Y.Bakirov, S.A.Soxibov**

Korrupsiaviy munosabatlarni oldini olishning falsafiy-analitik tahlilining ta'limi jihatlari ..... 599

**S.S.Evatov**

Kalom ilmining vujudga kelishi va uni islomdagi aqidaviy masalalarni o'rganishdaga o'mi ..... 604

**I.Y.Toirov**

Sivilizatsiya masalalarining nazariy - metodologik jihatlarini o'rganish muammolari ..... 608

**A.M.Rasulov**

Axborot va axborot makoni tushunchasi, ularning falsafiy tahlili ..... 612

**A.A.Sayitxonov**

Jamiyat va shaxs rivojida qadriyatlarning o'mi ..... 616

**F.A.Yuldashev**

Socio-philosophical analysis of categories of needs and interests ..... 620

**S.P.Tojiboyev**

Boshqaruv kadrlarining axloqiy madaniyati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili ..... 627

**B.X.Mirzraximov, B.T.Shokirov**

Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy mezonari ..... 633

**M.A.Abduxamidov**

Sovetlarning O'zbekistondagi masjidlarga munosabatining tahlili ..... 637

**SIYOSAT****J.A.Dadaboyeva**

Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari ..... 640

**A.A.Ganiyev**

Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jalik kooperativlari faoliyati ..... 645

**TARIX****B.A.Usmonov**

"Sohibqiron" atamasining kelib chiqishi va ma'nosiga oid fikrlarga bir ..... 650



UO'K: 355.01:37.034

**YOSHLAR TAFAKKURIDA HARBIY QAHRAMONLIK  
IDEALLARINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM-TARBIYANING ISTIQBOLDAGI  
VAZIFALARI**

**MILITARY HEROISM IN YOUTH THOUGHT  
PROSPECTIVE TASKS OF EDUCATION IN THE FORMATION OF THEIR IDEALS**

**ВОЕННЫЙ ГЕРОИЗМ В МОЛОДЕЗНИК МЫСЛЯК ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ЗАДАЧИ  
ОБРАЗОВАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ СВОИХ ИДЕАЛОВ**

Pulatov Baxodir Abduraupovich

Farg'ona davlat universiteti, Harbiy ta'lif fakulteti, Maxsus tayyorgarlik sikli boshlig'i

**Annotatsiya**

*Ushbu maqola yoshlardan tafakkurida qahramonlik idealarini shakllantirishda ta'lif tarbiyaning o'mni va istiqboldagi vazifalari haqida yoritilgan. Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik idealarini shakllantirish orgali bo'lajak kadrlarda harbiy soha bilan aloqador bo'lgan davlat xizmati turlarida faoliyat ko'rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqi taqdirlari uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.*

**Аннотация**

*В данной статье рассматривается роль образования и его функции в перспективе формирования идеалов гастроэномии в молодежной мысли. Через формирование идеалов военного героизма в молодежной мысли она заключается в формировании таких важных характеристик, как активность будущих кадров на видах гражданской службы, связанных с военной сферой, верность Конституции и воинский долг в мирной и военной жизни, контексте, и высокая ответственность и ответственность за судьбу своей страны и людей в ней.*

**Abstract**

*This article covers the role of education and its functions in perspective in shaping the ideals of gastronomy in youth thought. Through the formation of ideals of military heroism in youth thought, it consists in the formation of such important characteristics as activity in the future cadres in types of civil service associated with the military sphere, loyalty to the Constitution and military duty in a peaceful and military context, and high responsibility and responsibility for the fate of their country and people in them.*

**Kalit so'zlar:** Yoshlar, ideal, vatanpanvarlik, ta'lif-tarbiya, istiqbol, Qurolli Kuchlar, konsitutiya, qazramonlik, tafakkur, ishonch, armiya, harbiy-tekhnika.

**Ключевые слова:** молодежь, идеал, патриотизм, образование, перспектива, вооруженные силы, примирение, геройизм, мышление, доверие, Армия, Военно-технический.

**Key words:** Youth, ideal, patriotism, education, perspective, armedforces, conciliation, heroism, thinking, trust, Army, Military-Technical.

**KIRISH**

Bugungi kunda dunyoda «tinchlik» degan so'z va, «osoyishtalik» degan tushuncha g'oyat omonat bo'lib qolganiga, bu borada kechagi vaziyat, kechagi tahlil va prognozlar bugunga to'g'ri kelmayotgani jamiyatda jangavorlik ruhini rivojlantirish zaruratga aylantirmoqda. So'ngi yillarda yoshlardan tafakkurida harbiy qahramonlik idealarini shakllantirishning samarali mexanizmlari ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi, bu borada texnik va texnologik vositalarning imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish tizimi yo'lga qo'yildi. Shu munosabat bilan yoshlardan tafakkurida harbiy qahramonlik idealarini shakllantirishning ta'lifni tizimli tashkil etish, bu ishlarni faollashtirish va yuksak darajaga ko'tarish talab etiladi. Demak, o'zligini anglagan, tarixiy xotirasasi butun, mustaqil fikrlaydigan inson o'z vataniga sotqinlik qilmaydi, balki vatan manfaatini hamma narsadan ulug' tutib, uning uchun jon berishga tayyor harbiylarda jangavorlik sifatlari yuqori bo'ladi. Bu esa

## PEDAGOGIKA

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida vatan himoyasi chindan ham vazifa, balki sharaflı burchga aylanib borishidan yaqol dalolat beradi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatning barqarorligi ijtimoiy -iqtisodiy, siyosiy, harbiy, madaniy, axloqiy, maishiy, texnologik, axborot kabi omillarning o'zaro bog'liqligi va mavjudligi asosida shakllanadi. Bular, birinchi galda, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy muammolarini yechish va maqsad sari yo'naltirishga qaratilgandir. Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirish orqali bo'lajak kadrlarda harbiy soha bilan aloqador bo'lgan davlat xizmati turlarida faoliyk ko'rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat. Bu borada davlat siyosati darajasida ham ko'plab ishlar va islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, «dunyodagi eng yuksak standartlar darajasida tashkil etilgan uzlusiz harbiy ta'lim tizimi izchil rivojlanmoqda. Hozirgi paytda yangitdan tuzilgan, mohiyat e'tibori bilan noyob bo'lgan Axborot-kommunikasiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti mamlakatimizning zamonaviy oliy ta'lim muassasalari qatoridan munosib joy egalladi». Harbiy ta'lim-tarbiya murakkab ijtimoiy jarayon bo'lib, uni amalga oshirishning an'anaviy, zamonaviy uslub va vositalari mavjuddir. Harbiy tizim doirasida ta'lim-tarbiyaning turlari ham talaygina bo'lib, ularni bir biridan ajratilgan holatda olib borib bo'lmaydi. Agarda tizim doirasida uning qo'llanishi huquqiy asosiga suyansak, o'ziga xos bir tarzda pedagogik nomuvofiqlik vujudga keladi. Chunki, birinchidan, har qanday tarbiyaviy jarayon buyruq asosida amalga oshiriladi, ikkinchidan, tarbiyaviy jarayonda noan'anaviy usullarni qo'llash uchun hech bir uslubiy va amaliy qo'llanma mavjud emas.

Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda quydagilarni chuqr o'rganish va bilish talab etiladi: o'z Vatanini himoya qilishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Konstitutsion burchini bilish; Respublika mudofaaasini kelgusida kuchaytirish masalalari bo'yicha Hukumat qarorlari bilan tanishish; O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari bilan hal qilinadigan masalalarni, ularning vazifasi va xususiyatlarini anglash; O'zbekiston Respublikasi «Umumiyy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi, harbiy qasamyod va Umumharbiy Nizom talablarini o'rganish va o'zlashtirish; harbiy, harbiy-teknik bilimlar o'rganishda amaliy ko'nikmalarini hosil qilish va yosh askarni tayyorlash doirasida egallah; o'tgan otabobolarimiz harbiy masalalarga oid an'ana va udumlarini targ'ibot qilish.

Quyidagilar yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning asosiy vazifalari hisoblanadi: -yoshlarni milliy rivojlanish strategiyaga va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflı va muqaddas burch ekanini chuqr singdirish; -qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, vatan mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish; -milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nani yetuk kadrlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekan haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash; yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi turishda keng dunyoqarashni shakllantirish; har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-teknika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga, jangavorlik ruhiyatiga va taktik tayyorgarlik ko'nikmalariga ega harbiylarni tarbiyalash; O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orgali singdirib borish.

### ASOSIY QISM

Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishning muhimligi mamlakatimiz xavfsizligi, mudofaa quvvatini mustahkamlash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashga doir tarbiyaviy-profilaktik vazifalarining zaruriyati bilan ham belgilanadi. Shu sababli, harbiy soha kursant-talabalarida jangavor ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lif-tarbiya ishlari oldida turgan ulug'vor, mas'uliyatlari vazifa bo'lib qolmoqda.

Yoshlarning jismoniy jihatdan salomatlik cho'qqisiga erishishi, tanasidagi biologik va psixofiziologik jarayonlar uning kayfiyatida ijobiy tuyg'ular sifatida o'r'in olishi va ruhiyatda o'z-o'zidan qoniqish, ishonch hissining yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Demak, yoshlar tafakkurida

harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda uning tug'ilganidan to yetuk kadr bo'lgunga qadar kuch-quvvatga to'lishini, salomatlik borasida komillikka erishishida akmeologik yondashuv va ketma-ketlik muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bugungi kunda mustaqil mamlakatimiz ijtimoiy hayotining turli sohalarida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgani, ayniqsa ma'naviy sohada juda katta imkoniyatlar yaratilganligi quvonarli holdir. Zero, bu sohada bajariladigan ishlar, tadqiq qilishga muhtoj muammolar juda ko'p. Bu dolzarb muammolardan biri milliy va vatanparvarlik tarbiya masalasi- dir. Albatta, xalqimizning tarbiya borasidagi yetuk milliy ma'naviyati hamma vaqt umuminsoniy qadriyatlarning tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Tarbiya shaxs ongini muayyan jamiyatning maqsadi va rivojlantirish jarayoni, kishilarni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirot ettirishga qaratilgan barcha ta'sirlar majmuidir. Shuning uchun ham tarbiya harbiy xizmatchilar ma'naviyati shakllanishi va rivojlanishida muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Tarbiya oldida turgan asosiy maqsad o'sib kelayotgan avlod ongida keksa avlod dono tajribasini singdirish, insoniy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish, Vatan va millat oldidagi burch va mas'uliyatni his qilishga o'rgatish, qonunlarga rioya etish fazilatlarini qaror toptirishdan iboratdir. Chunki Vatanga sodiqlik, vatanparvarlik o'zi- ning qudratli ildizlari bilan oila, avlod-ajdodlarning ornomusiga chuqur ehtirom bilan qarashga, insonning o'z vijdoni va burchiga sodiqligiga borib taqaladi. O'zbek xalqining yuksak milliy qadriyatlari vatanparvarlik, milliy g'urumi ma'naviy yuksaltirish jamiyat ravnaqi yo'lidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi.

Qahramonlik ideallarni shakllantirishning muhimligi mamlakatimiz xavfsizligi, mudofaa quvvatini mustahkamlash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash zaruriyati bilan ham belgilanadi. Shu sababli, yosh harbiy xizmatchilarni qahramonlik ideallari asosida tarbiyalash ta'lim-tarbiya ishlari oldida turgan ulug'vor, mas'uliyatli vazifa bo'lib qolmoqda. Mustaqil davlatimizning bugungi bosh vazifalaridan biri – yurtim, elim deb kuyib, yonib yashaydigan vatanparvar komil insonni tarbiyalashdir. Vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish va takomilashtirish insonning tug'ilishidan to umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Chunki vatanparvarlik tarbiysi, avvalo, oiladan boshlanadi. Bunda ota-onan o'z farzandlariga ajdodlarimiz tarixi, ularning qahramonligi, jamiyatdagi obro'-e'tibori haqida hissiyot bilan gapirib bermog'i, shu asosida yosh avlodda Vatan tuyg'usini uyg'otmog'i kerak. Haqiqiy sevish, vatanparvarlik – shu ulug' Vatanni sevish, xalq uchun xizmat qilish, jonini fido etishdir. Qayerda bo'lsa ham Vatan, xalq manfaatlari uchun fidokorona kurashuvchi kishigina haqiqiy vatanparvardir. Haqiqiy vatanparvar inson takabburlikka, faqat o'z manfaatini o'ylovchi shaxs bo'lishga mutlaqo yo'l qo'ymaydi va xalqidan o'z manfaatini ustun tutmaydi, hamma vaqt xalq bilan bir jon, bir tan bo'ladi. Agar harbiy xizmatchilar o'z ona Vatanini sevmasa, unga sadoqat bilan qaramasa, haqiqiy barkamol inson bo'la olmaydi. Insoniylikning eng muhim fazilati ham vatanparvarlikdir.

Shunday bo'lsa ham, farzandlarimiz, kelajagimiz poydevorlarining, qolaversa, yoshlari bir joyga borgan, sochlariqa oq oralagan insonlarning ham vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun har kim, har qachon harakat qilishini unutmasligimiz lozim. Bular nimalardan iborat bo'lishi mumkin?

Bugungi kunda zamonaviy axborot urushi yoki to'qnashuvlari sifatida kompyuter hujumi, psixologik operatsiyalar va axborot hujumini alohida ko'rsatib o'tish mumkin.

G'oyaviy to'qnashuvlarni olib borishdan maqsadlar turlicha, bu faqat- gina g'oyaviy kurash mahsulotini tayyorlagan va qo'llayotganga ma'lum. Ammo, ularning zamirida iqtisodiy va siyosiy hamda harbiy maqsadlar mavjudligi aniqdir. Harbiy xizmatchilarimiz ongiga ofitserlarimiz tomonidan bu masala, ya'ni g'oyaviy kurashlarning salbiy va buzg'unchilik tomonlari aniq va misollar asosida tushuntirib berilsa, bizning Qurolli Kuchlarimiz uchun g'oyaviy hujumlarning ta'siri o'z kuchini yo'qotib, askarlarimiz yuksak jasorat ko'rsatib, o'z burchlarini sharaf bilan bajara oladilar. Shu orinda ta'kidlab o'tishni lozim deb hisoblardikki, armiya yoshlarni tarbiyalash bilan bir qatorda, ularni ham jismonan, ham ruhan chiniqtiradi hamda ota-onaga, oilaga bo'lgan mehr-muhabbatini uyg'otadi. Chiniqish insonning sabr-qanoatlari bo'lishga, qiyinchiliklarga bardosh berish va ularni yengishga o'rgatadi. Chiniqqan, qiyinchiliklarni yengishga o'rgangan insongina Vatanni himoya qila oladi. Qiyinchiliklarni yengish haqida so'z borganda, armiya faqat qiyinchilik bilan bog'liq, askar qiyinchilik qarshisida yolg'iz qolibgina uni yengishni o'rganadi, degan tushunchaga borish noto'g'ri. Armiyada muddatli harbiy xizmatchilarni chiniqtirish mobaynida ularga yetarlicha g'amxo'rlik ko'rsatish davlatimizning harbiy soha mutaxassislaridan eng ko'p talab qilayotgan xususiyatlaridan biridir.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Yoshlarni harbiy soha va huquqni muhofaza qiluvchi organlar soha-lariga qiziqtirishda soha vakillari bilan bir qatorda, ommaviy axborot vositalari (OAV), badiiy adabiyot, kino va teatr, qo'shiqchilik san'ati kabi sohalarning ham ko'magi darkorligi sir emas. Jumladan, OAVlar orqali harbiy sohaga atalgan ma'lumotlar, eshitirish va ko'rsatuvalr muntazam berib borilmoqda. Galdagi vazifa, ularning sifatini yanada oshirishga qaratilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Badiiy adabiyotda, kino va teatr sohalarida yoshlarni vatanparvarlikka, harbiy sohaga qizi-qishga undovchi asarlar ham fikrimizcha hali yetarli son va sifatga erish-madi. Harbiy soha va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yetuk vakillari bilan hamkorlikda yoshlarni o'ziga tortuvchi badiiy asarlar, ularni ekranga yoki sahna atrofiga to'plab qo'yadigan, yoshlar qalbida «men harbiy bo'laman», «Vatanimni himoya qilaman» degan maqsad uyg'otadigan film va spektakllar yaratilsa, yoshlarni Vatanni qo'rqliash uchun sport bilan shug'ullanib chiniqishga, Qurolli Kuchlar safida yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarda xizmat qilib, yurt rivojiga hissa qo'shishga, bugungi va o'zimizdan keyingi avlodning erkin-hur, rivojlangan mamlakatda umrguzaronlik qilishiga qo'shgan ulushimiz bo'ladi.

### XULOSA

Xulosa qilganda, yurtimizda professional armiyani shakllantirishga katta e'tibor qaratilayotgan ekan, ushbu soha mutaxassislariga qo'yilayotgan talablar ham ortib bormoqda. Ham jismonan, ham ruhan yetuk nomzodlarni saralash, ularni zamon talabiga mos mutaxassislar etib shakllantirish borasida ko'p islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, bugungi kunga qadar respublikamizda ta'sis etilgan harbiy oliygochlardan shular jumlasidandir. Ushbu oliygochlardan haqida sohaga qiziqqan nomzodlarga yetarlicha ma'lumot berish, ushbu oliygochlarning turli yo'nalishlari haqida ularga tushuncha berish ularning harbiy soha tarmoqlari ichidan yanada o'ziga mos ixtisoslikni tanlash imkonini beradi. Ayniqsa, umumta'lim o'rta maktablarda tahsil olayotgan o'quvchilarga harbiy sohada yaratilayotgan imkoniyatlar, sohaning sharafli mavqeyi, Vatanni himoya qilishdek ezgu vazifasi kabi umumiyy tushunchalar bilan bir qatorda, harbiy xizmatchilarning qonuniy huquqlari, burch va majburiyatlar haqida, ularga bugungi kunda qo'yiladigan talablar, talab etiladigan jismoniy, tafakkur va ruhiy xususiyatlar haqida tushuncha berish dolzarb masaladir.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. —Toshkent: O'zbekiston. 12. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 томлик. —Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
- Abduraupovich, P. B. (2023). O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 203
- Mirziyoyev Sh. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir.
- Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'llimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-tom. — Toshkent: O'zbekiston, 2017.
- Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziliqi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. — Toshkent: O'zbekiston
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi (22 dekabr 2017 yil)
- Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-tom. — Toshkent: O'zbekiston, 2019
- Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-tom. — Toshkent:
- Harbiy fakultet talabalarini harbiy xizmatga tayyorlashda axloqiy tarbiyani ahamiyati. Ijodkor o'qituvchi